

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2024-3/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
 Абдуллаева Муборак Махмудовна, б.ф.д., проф.
 Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
 Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
 Аимбетов Нағмет Қаллиев, и.ф.д., акад.
 Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
 Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
 Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
 Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
 Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
 Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
 Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
 Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
 Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
 Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманов Мурат Артебаевич, д.б.н., проф.
 Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
 Қаландаров Назимжон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
 Каримов Улғабек Темирбаевич, DSc
 Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
 Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
 Қутлиев Учқун Отабаевич, ф-м.ф.д.
 Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
 Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
 Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
 Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
 Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.
 Пазиллов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
 Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
 Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
 Рахимов Матназар Шомуратович, б.ф.д., проф.
 Раҳимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
 Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
 Рўзметов Дилишод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
 Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
 Салаев Санъатбек Комилов, и.ф.д., проф.
 Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
 Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
 Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
 Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.
 Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
 Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
 Тожибаев Комилжон Шаробитдинов, б.ф.д., акад.
 Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
 Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
 Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
 Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
 Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
 Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
 Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
 Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
 Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
 Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
 Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
 Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (112), Хоразм
 Маъмун академияси, 2024 й. – 278 б. – Босма нашрнинг электрон варианты -
<http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм
 Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abdurakhmanova Z.Yu. The similarities and contrasts between legal words in uzbek and chinese languages	6
Abduvahabova M.A. Ingliz va o'zbek folklor diskursida genderlikning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	9
Absamatova G.B. Surdo tarjima sinxron tarjimaning noverbal shakli sifatida	13
Aminova N.I. Shukur Xolmirzayevning "Ko'k dengiz" hikoyasida inson ma'naviy dunyosi tahlili	16
Ataboyev I. Ta'na-dashnom nutq strategiyasi muvaffaqiyatining ekstralingvistik shartlari	19
Bakayeva M.K., Astanova H.Z. The artistic modeling of personality in dreiser's works: capturing motives and assessing characters	23
Bazarova X.E. Jamol Kamol she'riyatida so'z jilosi	29
Bekova N., Achilova D.F. Abdulqodir Karomatullo ibn Ne'matullo Sabboq Buxoriy hayoti va adabiy merosi haqida	32
Boymatova D.B. Maqollarda muqobilsiz leksikaning ishlatilishi	35
Erkinov S.E., Saidova M.A. Unlocking global communication: the art and impact of simultaneous translation	37
Fayziyeva A.A., Raximova S.I. Ingliz tiliga xos konseptual metaforalar tahlili	40
Gadoeva M.I., Chullieva M. The old man and the sea, the battle of life for all human kind	42
Gadoeva M.I., Ibragimova M. Linguocultural analysis of imperative mood in uzbek and english	45
Gadoeva M.I., Mirzaeva M.Z. Expressing desire through lexical items in english and uzbek languages	47
Ismailov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida quyosh timsoli	50
Jo'rayev Sh.B. Tilshunoslikda o'zlashmalarning tasniflanishi	52
Karimova Sh. Modernizm yo'lidagi izlanishlar	55
Khayatova Z.M. Unveiling the language secrets: paraphrasing uzbek texts with software	60
Khodjaeva D.I., Ergasheva M.B. About the branch of onomastics that studies celestial objects	63
Kobilova N.S. Common features of a good language learner	65
Madraximova I.B. Shavkat Rahmon she'riyatida tun xronotopi	68
Mamarajabova I.F. "Vaqt" konseptini ifodalovchi birliklarning xususiyatlari	71
Maxsudova N.A. Konseptlarning leksikografik tavsifining o'ziga xos xususiyatlari	73
Mirzaboyeva N.M. Nemis va o'zbek maqollarida ismlar	78
Muhammadjonova G., Farhodjonova Sh. Badiiy adabiyotda daraxt timsoli va uning g'oyaviy-falsafiy talqini	81
Muqimova Z.R. Tabiat hodisalarini atovchi nomlarning lingvomadaniy xususiyati	83
Muratova G. G'afur G'ulom hikoyalarida qahramon xarakteri tasviridagi rang-baranglik	87
Murodjonova L.F. The ratio of non-verbal and verbal paralinguistic tools used in speech activity	90
Muxtoraliyev B.I. Anvar Obidjonning badiiy mahorati	93
Navruzova N.X. The position of connotative meaning in the semantic structure of a word	96
Niyazova M.X., Tuxtayeva M.A. Tog'ay Murodning asar personajlari nutqida maqol qo'llash mahorati	99
Norboyev O'S. "Asil va Karam" dostonining shakllanishidagi ilk manbalar va uning yozuvga ko'chishi	102
Norboyev O'S. "Asil va Karam" dostonining og'zaki versiyalari	105
Nuriddinova N.B. Poetic features of Stephen King's works	107
Ochilova H.A. So'roq gap va uning turlari haqida	111
Oripova G.M. Abduvali Qutbiddinning qofiya qo'llash san'ati	115

7. Sulaymonovna, Q. N., & Abduxolqovna, R. M. (2023, May). Structure of the linguistic category "characteristics of a human". In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 151-153).
8. Sulaymonbekovna, Q. N., & Raimovna, I. G. (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 902-908.
9. Nazarova, N. (2023). Analysis of anthroponyms in english linguistics. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 44(44).
10. Ahrorovna, N. N. (2023). Analyses of Anthroponyms in the Novel "The Godfather". *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(10), 523-526.
11. Ahrorovna, N. N. (2023, May). Antroponimlarning lingvokulturologik tahlili. In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 69-71).
12. Nazarova, N. (2023). Tilshunoslikda nazariy va amaliy onomastika tasnifi. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 43(43).
13. Ibragimova Gulshan Raimovna Qobilova Nargisa Sulaymonbekovna, (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence, *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 902-908.

UO'K 821.161.1:1

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATIDA TUN XRONOTOPI

I.B.Madraximova, tadqiqotchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. Ushbu maqolada xronotop tushunchasi va 70-yillar she'riyatida badiiy xronotopning bir qancha turlarini talqin qilingani, shu jumladan Shavkat Rahmon she'riyatida tun xronotopining aks etishi haqida fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: poeziya, xronotop, badiiy xronotop, poetik obraz, nasriy asar, makon, zamon

Аннотация. В данной статье выражено понятие хронотопа и трактовка нескольких типов художественного хронотопа в поэзии 70-х годов, в том числе отражение ночного хронотопа в поэзии Шавката Рахмана.

Ключевые слова: поэзия, хронотоп, художественный хронотоп, поэтический образ, прозаическое произведение, пространство, время

Abstract. In this article, the concept of chronotope and the interpretation of several types of artistic chronotope in the poetry of the 70s, including the reflection of the night chronotope in Shavkat Rahman's poetry, are expressed.

Key words: poetry, chronotope, artistic chronotope, poetic image, prose work, space, time

XX asrning boshlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy hayot manzarasi shoirlarga katta kuch va e'tiqod buloqlari bilan sug'oriladigan mazmun va shakllarni taqdim etdi. Cho'lpon va G'.G'ulom, H.Olimjon va Oybekning haroratli poeziyasi ana shu jarayonning mahsuli ekanligini e'tirof etish lozim. "...O'zbek she'riyati yangilanishida ichki omillar hukmron mavqega ega bo'lgan. Shuning barobarida, turk, ozar, qozoq, qirg'iz, turkman she'riyatidagi modernlashuv va qardosh xalqlar adabiyotining jadid milliy matbuotida aks etishi, rus hamda jahon adabiyotidan qilingan tarjimalar g'oya, shakl va mavzu, poetik obrazlar mundarijasida o'zgarish yasadi. Turk adabiyoti ta'siri A.Homid, T.Fikrat, Z.Tavfiq (bu jihat Ziyo Ko'kalpning "Millat" – S.Xondaliqiy "Vatan nadir..." she'rlari; Tavfiq Fikratning "Tarixi qadim" – Fitratning "Sharq she'rlari qiyosida aniq namoyon bo'ladi", tatar adabiyoti ta'siri A.To'qay, Majid G'afuriy, F.Amirxon, O.Ibrohimov (A.To'qayning Hamza, Cho'lpon ijodiga ta'siri), ozor adabiyoti ta'siri M.Hodiy ijodi orqali she'riyatimizga ko'chib o'tdi. Rus va jahon adabiyoti tajribalari Pushkin, Lermontov, Gogol, Krilov, Tolstoy, Nekrasov, Chexov, Gorkiy, S.Tretyakovdan qilingan tarjimalar orqali o'zlashtirildi". Binobarin, davrning tadrijiy aks etishi o'tgan asr, jadidlar boshlab bergan an'analarda yaqqol yuzaga chiqdi. Bu tadrijiy silsila – 70-yillarga kelib chuqurlashdi. Badiiy makonning esa zamonda aks etishi, idividual ijod psixologiyasida yanada teranlik kasb etdi. Ayniqsa, R.Parfi, U.Azim, Sh.Rahmon, X.Rustamova ijodida buning yorqin idroklanishini ko'rishimiz mumkin. Shu yerda yana bir muammo yuzaga keladi.

To'g'ri, nasriy asarlarda makon va zamon nisbatan aniqroq va batafsilroq hamda obyektiv tasvirda namoyon bo'ladi. Lirik she'riyatda voqelik subyektiv, ya'ni shoirning ichki olami orqali ifodalanadi, degan azaliy qoida bor. Ana shu qoida lirik she'riyatda makon va zamon kategoriyasi

bo'lmaydi, unda vaqt birlamchi degan tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'lgan [1]. Shunday ekan, lirikada badiiy xronotopning bu holati muallif "men"ning vaqtni idrok etayotgan kayfiyati bilan uyg'un holda kelishi zarur. Deylik, ikkinchi jahon urushi yillarini tasvir etilayotgan jangu-jadallarda vaqt va zamon kategoriyasi, xayoliy-ruhiy idrokka tutashadi. Shoir qanchadir yil orqaga qaytib, tasavvur va o'ylash orqali qayta tafakkur yuritadi. Ayni shu tamoyilda badiiy xronotopning shaklu-shamoyili gavdalanadi.

Ma'lumki, botiniy vaqt va zamon haqida buyuk mutafakkir alloma imom G'azzoliyning ta'kidlashicha quyidagi mulohazalarida yaxshi dalil mavjud: "Bilginki, fikrning ma'nosi uchinchi ma'rifat(ilm)ni hosil qilish uchun qalbda ikki ma'rifat(ilm)ni hozirlashdan iborat. Bunga misol shuki, kim bu dunyoni xohlasa, hayoti dunyoni afzal bilsa va oxiratni bu dunyodan ustun qo'yish a'loroq ekanini bilishni istasa, buning uchun ikki yo'l mavjud: (Birinchisi) oxiratning bu dunyoga nisbatan afzal ekanini boshqadan eshitib, unga taqlid qiladi va mohiyatini anglamasdan tasdiqlaydi; o'z amali orqali uning so'ziga ishonib oxiratni ustun qo'yadi. Bu "taqlid" deb ataladi. Lekin u ma'rifat(ilm) emas. (Ikkinchi yo'l) Boqiy qoluvchi narsani tanlash afzal ekanini aniq bilishdir. Shundan keyin u oxirat boqiyroq ekanini to'liq taniydi. Natija shuki, u kishi mana shu ikki ma'rifat(ilm)dan uchinchi ma'rifat(ilm)ga o'tadi. Bu ilm oxiratni tanlash afzal ekanini bilishdan iborat. Oxiratni tanlash afzal, degan ilm faqat oldingi ikki ma'rifat(ilm) tufayli yuzaga chiqadi" [2]. Haqiqatdan ham buni quyidagi she'rda ham ko'rishimiz mumkin:

Tinmayin men hasratingda olloh desam,
Zor ingrabon zokir bo'lib, rabbim desam.
Quli bo'lib, qullig'ingda buyin sinsam,
Bu ish birla, yorab, seni topqayg'umen.
Zikriyodek bu boshimg'a arra quysam,
Ayyubdek (ham) bu tanimg'a qurtni solsam.
Musodek (ham) Tur tog'ida toat qilsam,
Bu ish birla, yorab, seni topg'aymumen? [3]

Ushbu she'rdagi makon va zamonga diqqat qilinsa masala mohiyati yanada oydinlashadi. Jumladan, mutafakkir Ahmad Yassaviy o'z zamonasida islomga qarshi juda ko'plab fitnalar, yolg'on yo'l boshlovchilar, din dushmanlari bo'lgan. Muhammad (s.a.v) yo'li noto'g'ri ekanligini ko'rsatuvchi har xil razil to'dalar paydo bo'lgan. Fisqu fasod urchigan bir davrda Qur'on oyatlarini, Haq taolo hukmini she'riy yo'sinda xalqqa yetkazish, oddiy savodi yo'q olomonni to'g'ri yo'lga boshlash uchun ham shunday ish ko'rgani bejiz emas. Ayniqsa, Yassaviya tariqati – insonni ma'nan va ruhan komil inson bo'lib voyaga yetishini ta'minlovchi Alloh yo'ldagi jiddu-jahdni qo'llovchi bir yo'l bo'lganki, uni ko'pchilik qabul qilgan. Mana shu to'rtlikda ham Allohni tanish va uning Farmoniga so'zsiz itoatda bo'lishga o'zgalarni ham da'vat qilish ko'zda tutiladi. Aytish joizki, Yassaviya tariqati mohiyatida Allohni bilishlikning ham o'ziga xos yo'llari bo'ladi. Bu yo'lning boshida ham o'rtasida ham oxirida ham – insonning ruhi va amali, niyati pok bo'lishi muqarrarligi ayonlashadi.

Badiiy xronotop nima degan savol tug'ilishi tabiiy. Adabiyotshunoslik lug'atlarida atamaga kengroq to'xtalgan. Taniqli rus munaqqidi M.M.Baxtin: "Badiiy asarda makon va zamon muammosi, garchi unga qadar ma'lum darajada o'rganilgan bo'lsa ham, bevosita "xronotop" termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o'tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonaro uyg'unlikni xronotop (so'zma-so'z tarjimada makon-zamon degan ma'noni bildiradi),deb ataymiz.

Biz 70-yillar she'riyatida badiiy xronotopning quyidagi turlarini talqin qildik.

1. Tun xronotopi.
2. Bahor xronotopi.
3. Kuz xronotopi.
4. Iltijo xronotopi.

Shundan **Shavkat Rahmon** she'riyatida tun xronotopiga to'xtalib o'tamiz.

Tun xronotopi Sh.Rahmon lirikasida esa boshqacha go'zal manzarani hosil qiladi:

Tun dedim yarashdi bu ism,

*men seni bir so‘zdan yaratdim.
Kiydirdim yarqiroq ko‘ylakni,
husningga olamni qaratdim.*

*Sen marol ko‘zidan chiroyli,
ohanglar taralar ismingdan.
Sen go‘zal tonglarni tug‘asan,
nastarin bo‘ylari jismingda [4].*

She‘rdagi tunni shoir birgina so‘z idrokida anglatadi. Qator obrazlar, tashbehlar shoir ruhiyatining aks-sadosidir. Aslida, she‘rdagi poetik g‘oya va pafos – tunning oniy lahzadagi “tutib bo‘lmas” manzaraning o‘zginasi ekanligi ayonlashadi. Jamiyatda har qanday holatda ham tun – qalbning tebranishlarini, shoirning yolg‘izlikdagi ruhiy muvozanatining yaxshilikka moyilligini, lirik qahramonning o‘zini idroklashga keng zamin hozirlaydi. “Poetik g‘oya ma’lum bir shart-sharoitda, real hayotning muammoli ko‘rinishlarini badiiy asarga olib kirish ehtiyoji bilan vujudga keladi. Tabiiyki, ehtiyoj o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi. Unga hayotning qandaydir bir muammosi turtki beradi. Shuning uchun ham badiiy g‘oya “obrazli fikr”, “voqealar mantiqi va mohiyatidan kelib chiqar” ekan, albatta, o‘sha voqelik qandaydir makon va zamonda ro‘y beradi. Poetik g‘oyaning tug‘ilishida hayotiy vaqt muhim vazifani bajaradi. Chunki hayotiy vaqt badiiy to‘qimaning zaruriyatga aylantiradigan vaqt bo‘lib, ijodkor uni ayrim o‘rinlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ba‘zan ramz, istiora, tarixga murojaat, badiiy to‘qima yordamida adabiy asarga ko‘chiradi. Bu esa ijodkor yashagan muhit, jamiyat, tabiat, uning dunyoqarashi, didi, saviyasi, qolaversa, kitobxon ehtiyoji bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi” [5]. Binobarin, lirik xronotopda – g‘oyaviy-badiiy pafos shoir ruhiy anglashlari hosilasi o‘laroq tug‘iladi. O‘z-o‘zidan ayonki, lirik asar tabiatidagi ijtimoiy-falsafiy modullar tugal zamon va tugal vaziyat mantiqiy dalolatnomasi ekanligida ko‘rinadi. She‘rning qolgan ikki bandi voqelikning yakuniy yechimi sanaladi. Masalan:

Oylarni joyladim bag‘ringga,
sen barcha tunlarning yoshisan.
So‘ng o‘zim yiqildim hayratdan,
millionta suluvning sochisan.

Qadadim qop-qora ko‘ksingga,
cho‘g‘ kabi qip-qizil g‘unchalar,
Agar men bo‘lmasam, eshit, tun,
Chiroyli bo‘lmasang bunchalar [6].

She‘rdagi metonimiya hodisasi haqida so‘z borganda bu haqda Adabiyotshunoslik lug‘ati“da shunday qayd etiladi: “Metanimiya (yun.metonymia – qayta nomlash, boshqa narsa orqali atash) – ma’no ko‘chishning keng tarqalgan turlaridan biri, ko‘chimning narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlikka asoslanuvchi turi. Narsa-hodisalar orasidagi aloqadorlik turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi: narsa-hodisa, holat yoki harakat bilan ular egallagan joy (“stadion hayqirdi”, “butun shahar qatnashdi”), vaqt (“og‘ir kun”, “omadli yil”). Badiiy adabiyotda, ayniqsa, metaforik tasavvur yetakchilik qilayotgan zamonaviy adabiyotda M. Metaforaga nisbatan kam uchraydi, zero, estetik funksiyadorligi jihatidan u metaforadan quyiroq turadi. Shunday bo‘lsa-da, badiiy matnda metafora bilan yondosh qo‘llangan holda u katta badiiy samara beradi, fikrni lo‘nda va ta’sirli ifodalashga xizmat qiladi” [6]. Haqiqatdan ham, metaforik asosdagi ko‘chma ma’nolar yuqoridagi she‘rda o‘ziga xos tarzda ifodasini topgan. Xususan, “Tun-oy”, “Oy-soch” singari qayta nomlangan tunning nomlari shu qadar o‘quvchiga huzur bag‘ishlaydi. Tunning xronotopik joylashuvi vaqt (tong)ning otishi bilan muqoyasa qiladi. Shoir zamonning bir oniy lahzada kechishi, aslida, o‘zining ruhiy kechinmalari yanglig‘ tartiblanadi. Natijada tunning iztirobga muhim va monand kelishini, tasvirlardagi o‘xshatishlar orqali ham jozibadorlikni oshirib boradi. Sh.Rahmon tun xronotopidan maksimal darajada yangi tashbehlar, ohori to‘kilmagan obrazlar, kechinmalarni tipiklashtirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yo‘lchiyev Q. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida makon va zamon kategoriyasi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. –Farg‘ona. 2021. –B.17.

2. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid -din. Tafakkur kitobi. – Toshkent: Toshkent islom universiteti , – B. 4. www.ziyouz.com.uz.
3. Ahmad Yassaviy Hikmatlar. –T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti. 1991. –B.94.
4. Shavkat Rahmon. Saylanma. –T: "Sharq". 1997. –B.16-17.
5. Xursanov D. Hozirgi o'zbek she'riyatida xronotop poetikasi. Filol.fan.bo'yicha.falsafa.dok..avtoref. – Samarqand. 2020. –B.11.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T: "Akademnashr". 2013. –B.172.

UO'K 808.5

“VAQT” KONSEPTINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING XUSUSIYATLARI**I.F.Mamarajabova, doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent**

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida «vaqt» kontseptiga oid birliklarning tarixiy-etimologik, statistik tadqiqi va mahalliy va xorijiy olimlar o'z tadqiqotlarida vaqt tushunchasini qaysi jihatlariga murojaat qilganliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: semantika, tilshunoslik, vaqt, tarix, Eynshteyn, "kontseptualizm", o'lchov, falsafa, sikl.

Аннотация. В этой статье рассматривается историко-этимологическое, статистическое исследование единиц, относящихся к понятию "время" на узбекском языке, и то, к каким аспектам понятия времени обращались отечественные и зарубежные ученые в своих исследованиях.

Ключевые слова: семантика, Лингвистика, время, история, Эйнштейн, "концептуализм", измерение, философия, цикл.

Abstract. This article covers the historical-etymological, statistical study of units related to the concept of "time" in Uzbek and what aspects domestic and foreign scientists refer to the concept of time in their studies.

Keywords: semantics, linguistics, time, History, Einstein, "conceptualism", measure, philosophy, cycle.

Kirish. O'zbek tilida “vaqt” konsepti gap qolipidagi birliklar orqali ham ifodalanadi. Bunda avval, avvallari, keyin, keyinroq, yaqinda, so'ng, vaqtida, paytida, burun, ilgari, oldin, oldinlari, , bugun, ertaga, bugun kecha, kecha ravishlari, har doim, doimiy, doimo, tez-tez, umuman, deyarli hech, ko'p, hech qachon, odatdagidek, vaqti-vaqti bilan (ba'zan), tez-tez, vaqti-vaqti bilan (muntazam, vaqti-vaqti bilan), muntazam, takroran, ba'zan, odatda, hozir va keyin (ahyonda, ba'zan) beri, buyon ko'makchilari orqali ifodalanadi. Masalan, Avvallari bu haqda hech kim so'ramas edi. Qushlar pastlab uchsa, yomg'ir yog'adi. Masalan,

- 1) Hozir yomg'ir yog'a boshladi! (vaqt nuqtasi).
- 2) Men uni yaqinda ko'rmadim (vaqt davri).
- 3) Bugun kechqurun bo'sh bo'lasizmi? (vaqt davri)/ Bugun kechasi bo'shmisiz?
- 4) Keyinroq ko'rishamiz (vaqt nuqtasi)/ Keyinroq ko'rishguncha.

- 1) U doimo o'z fikrini o'zgartiradi (vaqt chastotasi).
- 2) Biz hozir va keyin uchrashamiz, lekin muntazam emas (vaqt chastotasi).
- 3) Nodir kamdan-kam hollarda xonasidan chiqib ketardi (chastotali). Asosan, allaqachon, erta, nihoyat, birinchi, darhol, hozir, kech, uzoq, hozir, yaqinda, beri, yaqinda, hali va hokazo leksik vositalari faol qo'llanadi. Masalan:

- 1) Men hozir (yaqinda) qaytaman/ Birozdan keyin qaytaman.
- 2) Halima erta turdi.
- 3) U endigina operatsiya qilindi.

R. Davlatova “payt ravishlari ishora qilgan zamon real vaqt bilan mos kelmasligi mumkin”ligini aytgan: “Masalan, maktub yozilgan vaqtga nisbatan qo'llangan hozir ravishi hozirgi zamonga ishorani anglatadi. Maktubni olgan va o'qiyotgan kishi uchun mazkur zamon o'tgan zamonni anglatadi”[1]. Hozirgi (qisqa) jumlada 1) hozirdan to kelajakdagi ma'lum bir daqiqagacha bo'lgan qisqa davomiylikni ta'kidlaydi; oxirgi (nihoyat) jumlada 2) voqeaning yakuniy natijasini ta'kidlaydi;